

HARBIY JURNALISTKANING IJODIY FAOLIYATI VA RESPUBLIKA OMMAVIY AXBAROT VOSITALARIDA QUROLLI KUCHLARDAGI ISLOHOTLARNING YORITILISHI

Baxriddinova Sarvinoz Baxriddin qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti Xalqaro jurnalistika yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Butun dunyoda shiddat bilan kechayotgan globallashuv jahonda ro'y berayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar yuzaga kelgan. Mana shunday vaziyatda sohadagi yangiliklarni yoritishda jurnalistdan kasbiy mahorat bilan birga chuqur idrok, teran fikr, ziyrakli va sergalikni talab etadi. Jurnalist ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni, yutuqlarni hamda kamchiliklarni haqqoniy va xolisona yorita olsagina uning maqolalari, ko'rsatuvlari va eshittirishlari jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. O'zbekiston harbiy jurnalistka axbarot integratsiyasi jarayonlar tarkibida tutgan o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Harbiy jurnalistkada oldiga qo'yilgan aniq vazifalari misollar orqali ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Qurolli kuchlar, harbiy jurnalistika, islohotlar, harbiy matbuot, respublika, mudofaa doktrinasi, harbiy ta'lim.*

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida media orqali harbiy masalalardagi axborot almashinuviga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. OAVda uzatilayotgan har bir axborot davlat siyosatiga zid kelib, bir davlatni boshqa davlatga qarshi qilib qo'yishi, o'rtada ziddiyatlar yuzaga kelishiga yo'l qo'yilmasligi lozim. Harbiy yo'nalishga oid media mahsulotlarining inson ongiga ta'sir doirasi keng ekanini jahon tajribasi va amaliyoti tasdiqlamoqda. Ommaviy axborot vositalari tizimida harbiy jurnalistika o'ziga xos dinamikaga ega bo'lgan ijtimoiy institutning bir bo'lagidir. Unda axborot integratsiyasi harbiy sohani aks ettirish bilan bir qatorda urush yoki tinchlik davrida faoliyat yuritayotganiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Urush davridan to hozirgi kungacha bo'lgan xalqaro ziddiyatlarda ommaviy axborot vositalari auditoriyaga axborot yetkazishda fuqarolarning fikri, tasavvuriga ta'sir ko'rsatishda katta rol o'ynamoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo'lgan ommaviy axbarot vositalari haqida so'z yuritganda, biz, avvalo, doimo yangilik izlab, yangilikka intilib, hayotning qaynoq nuqtalariga kirib boradigan, xolislik va haqqoniylik. Vatan va xalq manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadigan olijanob va mas'uliyatli kasb egalarini tasavvur qilamiz" deb bejizga ta'kidlamagan.

Demak, harbiy jurnalist o'zi kim va qanday vazifalari bor? Yoki, O'zbekistonda harbiy jurnalistkaga ehtiyoj bormi? Manbalarda mazkur savollarga javob izlanganda quyidagicha tavsiflari mavjud:

- armiya bilan bog'liq masalalarni;
- urush va to'qnashuvlarni;

-armiya maishiy hayotini;

-harbiy voqealik va nizolarni yoritadigan, armiya, aviatsiya, flotga harbiy harakatlarni vaqtida ergashib yuradigan harbiy xizmatchi-harbiy jurnalist hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib harbiy jurnalistlarimiz tinchlik vaqtida o'z faoliyatlarini ommaviy axbarot vositalarida yoritmoqda.

Miloddan avvalgi va keyingi yillarda insoniyat boshidan o'tkazgan qirg'inbarot jangu jadallar harbiy muxbirlik kasbining vujudga kelish ehtiyojini tug'dirdi. Harbiy jurnalistikaning tarixi, ilk ko'rinishlarini rivojlanish bosqichlari haqida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Alijon Safarovning ilmiy izlanishlari, o'quv qo'llanma va turkum maqolalari ilm-fan tarmog'ida ilk marotaba maxsus o'rganilgan ish sifatida diqqatga sazovordir. Olimning qayd etishicha, "harbiy jurnalist" qadim-qadimda ham bo'lgan. Masalan, Aleksandr Makadoniskiy qo'shinida urush tafsilotlarini yozib boradigan maxsus tayyorlangan kishilar bo'lgan.

Maxsus tayyorlangan kishilar qo'shinda jang borishini, taktika va strategiyasini, qahramonlik ko'rsatgan bahodirlarni, umuman barcha muhim tafsilotlarini yozib borishgan. Bu harbiy jurnalistikaning ilk ko'rnishidir. Bundan asosiy maqsad:

- harbiy yurishlar tafsilotlarini yozib borish;
- qahramonlik, mardlik, jasoratni tarannum etish;
- dushmanga yolg'on xabar bilan ta'sir o'tkazish;
- tinch aholi orasida ig'vo, bo'xton orqali vasvasa uyg'otish.

Harbiy jurnalistka ijtimoiy-siyosiy buyurtmani ham bajargan hamda axbarot-psixologik qurol o'rnida ham ishlagan. Bundan tashqari harbiy jurnalistika tarix, adabiyot, madaniyat rivojiga ham o'z davrida katta hissa qo'shgan. Masalan, yozuvchi Xemingvayni olaylik. Urushda qatnashib, asar bitgan. Shuning uchun ham yozganlari hayotiy, o'ta ta'sirli chiqqan. Urush, qirg'inbarotlar insoniyat uchun qanchalar fojiali ekanini yozish uchun adibning o'zi bu olovning ichiga kirgan. Demak, harbiy jurnalist bu mudofaa mavzusida materiallar tayyorlovchi, urush va nizolarni yorituvchi hamda olovli nuqtalardan axboriy materiallar tayyorladigan shaxsdir.

Bizga ma'lumki bugungi kunda dunyoda siyosiy vaziyatlar keng tus olgan. Mana shunday vaziyatda urush jarayonlarni yoritadigan, olov ichida kamera, diktafon ushlab harakat qilayotgan hamda jamoatchilikka voqealikni xolis yetkazadigan jurnalistlarga ehtiyoj keltirib chiqarmoqda. "Committee to protect journalists (Jurnalistlarni himoya qilish qo'mitasi) ma'lum qilishicha, 2018 yilning 1-yanvardan to 14-dekabr gacha dunyo bo'yicha 53 nafar jurnalist halok bo'lgan. Shulardan 34 nafari qasddan o'ldirilgan. Shundan 11 nafar jurnalist harbiy harakatlarni yoritishda hamda 8 nafar jurnalist esa norozilik namoyishlarini yoritish vaqtida halok bo'lgan.

Qurolli kuchlar akademiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibidagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Mazkur yig'ilishda davlatimiz rahbari tomonidan mutasaddilarga O'zbekistonda harbiy jurnalistlarni tayyorlash bo'yicha ko'rsatma berildi. Natijada 2019-yildan e'tiboran "Harbiy jurnalistika" yo'nalishi ochildi.

Milliy armiyamiz takomillashuvining yangi bosqichida ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Birgina Mudofaa doktrinasini olib qaraylik. Mudofaa doktrinasini jahonda va mintaqadagi vaziyatga, yuzaga kelayotgan xatar va tahdidlarga, mamlakat imkoniyatlariga mosligi hamda ochiqligi bilan oldingisidan farq qiladi.

Harbiy jurnalistkaga ehtiyojning yana bir muhim jihati kuch ishlatar tuzilmalar-Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi kabi idoralarda so'nggi paytlarda axbarot xizmatlari, matbuot organlaridagi faollik va shaffoflik siyosatiga amal qila boshlagani bilan harakterlanadi.

O'zbekistonda ilk harbiy gazetalar sho'rolar hukmronligi davrida chop etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi markaziy arxivida saqlanayotgan tarixiy ma'lumotnomaga ko'ra, mamlakatimizdagi ilk harbiy gazeta "KRASNOARMETS" nomi bilan 1918-yildan 1921-yilgacha chop etilgan. Tarixchi olim P. Agapov 1918-1920-yillarda chop etilgan Turkiston sovet harbiy gazetalarini va jurnallarini quyidagicha turkumlagan:

- markaziy nashrlar- "Krasnoarmets", "Krasniy front", "Borets za kommunizm"
- front gazetalariga:-"Gornist", "Nasha frontovaya jizn", "Boy za kommunizm"
- armiya gazetasi:-"Nabat revolyutsii"
- divizion(brigada) gazetalarini- "Pravda", "Luch Vostoka"
- milliy nashrlar- "Qizil yo'l", "Qizil yulduz", "Sadoi fuqaro"

Ichki ishlar vazirligi rahbariyati tashabbusi bilan "Postda" va "Na Postu" gazetalarini qayta tiklashga qaror qilingan. 1991-yil 1-yanvarda ikki tilda alohida chop etilgan.

Harbiy jurnalistikada axbarot tayyorlaganda xavfsizlik masalasi muhim o'rin tutadi. Shuning uchun mazkur sohada faoliyat olib borayotgan jurnalistlar, avvalo, axbarot o'zi nima ekanligini va undan foydalanish huquqlarini o'rganish lozim. Chunki, harbiy jurnalist sohaga oid terminlarni yaxshi bilish kerakligi, dunyoda sodir bo'layotgan nizolar, va to'qnashuvlar vaqtida axbariy materiallar tayyorlashi, axbarot olishi, harbiy sirlarga amal qilishi hamda harbiy xavfsizlik tahdidlarni anglash uchun malakaga ega bo'lishi talab etiladi. Bundan tashqari mamlakatimizda Mudofaa vazirligi tomonidan 2016-yil 7-apreldagi 39-sonli buyrug'iga muvofiq "Harbiy jurnalistika" mahorat maktabi tashkil etildi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev farmoni bo'yicha O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalari Universitetida 2019-yilda xarbiy jurnalistika fakulteti tashkil etildi. va ushbu sohaga bo'lgan talab tobora oshib bormoqda. Ustozimiz Polkovnik Alijon Safarov "Bo'lgusi xarbiy jurnalist Vatan uchun nafaqat xuzur-halovatidan, balki o'z jonidan ham kechishga tayyor bo'lsa shundagina tinch otgan xar bir tongda bizning ham xissamiz bo'ladi" degan edilar. Harbiy sohadagi axborotlarni shu yo'nalishga ixtisoslashgan jurnalistlar yozadilar. Ushbu jiddiy, siyosiy ahamiyatga molik bo'lgan yo'nalishni yaxshi bilmay, qalam tebratish turli ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli eng avvalo, harbiy jurnalist kimligi hamda qanday ishlarni amalga oshirishi kerakligi haqida to'liq bilib olish zarur. Tadqiqotchilarning "harbiy

jurnalistika” tushunchasiga berilgan ta'rif va ilmiy qarashlari urush, nizo va olovli nuqtalardan axborot berish, uni yoritish motividan kelib chiqqan. Hozirgi kungacha harbiy jurnalist bu harbiy harakatlar paytida harbiy qo'shin, aviatsiya va dengiz floti bilan birgalikda harakatlanadigan va ommaviy axborot vositalarida harbiy to'qnashuv, urush jarayonlarini yoritadigan jurnalist deb izohlanadi.

Zamonaviy harbiy jurnalistika mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yagona davlat siyosati doirasida ish ko'radi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasiga ko'ra, mamlakat mudofaasi-O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligi, aholisining tinch hayoti va xavfsizligi himoya qilinishini ta'minlovchi nafaqat siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, tashkiliy tusdagi, balki, axborotga oid chora-tadbirlar tizimini ham o'z ichiga qamrab oladi. Shu bois zamonaviy harbiy jurnalist Mudofaa doktrinasida belgilangan asosiy strategiya va tayanch tushunchalar mohiyatini bilishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda jurnalistlardan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi yangiliklarni kasbiy mahorat bilan bilan birgalikda chuqur idrok, teran fikr, ziyraklik va sergaklikni talab etadi. Bunda o'z navbatida jurnalist ixtisoslashuvi ham alohida o'ringa ega. Mamlakat Qurolli Kuchlari va mudofaasini takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning jismoniy, axloqiy va vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq vazifalarni hal etish harbiy axborotga bo'lgan talabni kuchaytiradi. Harbiy jurnalist har qanday vaziyatga tayyor turishi, jismoniy tomonlama baquvvat bo'lishi kerak. Shuni ta'kidlash joizki, harbiy jurnalistika Qurolli Kuchlarning rivojlanish jarayoniga hamnafas, hatto bir qadam oldinda bo'lishi kerak. Shunda tinchlik, omonlikda o'tgan har bir tongda hissamiz bo'ladi. Ishonch bilan ayta olamanki, Prezidentimiz tashabbusi bilan harbiy jurnalistlarni tayyorlash, qayta tayyorlash tizimiga solingani mamlakatimiz mudofaa salohiyatining yanada mustahkamlanishiga, harbiy sohada o'zgarayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati xalqimiz ongiga chuqur sindirilishiga, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida harbiy sohaga havas yanada ortishiga, milliy g'urning yuksalishiga xizmat qiladi. Bo'lg'usi harbiy jurnalist Vatan deb nafaqat huzuridan, balki hatto jonidan ham voz kechishga tayyor turishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Khodjaeva, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431
2. A. Сафаров. Ҳарбий журналистика асослари. Тошкент-2022, “Muhr-Press”. 272 бет
3. Yulduz Ortiqova “Jurnalistikada kreativ fikrlash”, Toshkent 2021 Mumtoz so‘z. 124 bet
4. Toshev F. Jurnalistning noni qattqi.- Toshkent, 2009

5. Xudoyqulov M. Jurnakistika va publitsistika,-T: "Tafakkur" nashriyoti, 2011.-
B.188
6. "Krasnayazvezda" 1922-yil, 16-sentabr,56 (188) son
7. Media Trend, Moskva, 2012, 9-noyabr, 2-sahifa
8. "Qizil O'zbekiston" gazetasi, 1944-yil, 133-son (6045) 1-bet
9. "O'zbekiston Armiyasi" jurnali,2016-yil,sentabr, 3-son
10. "Vatanparvar" gazetasi, 2017-yil, 24--mart, 12-son
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Harbiy_jurnalistika
12. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/01/12/security-council/>
13. <https://www.politics/matbuot-va-ommaviy-akhborot-vositalari-khodimlariga-27-06-2017>

